

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

JABBOROV IKROMJON JUMANIYAZOVICH

**SHAYX NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA INSON TUSHUNCHASI:
QIYOSIY-FALSAFIY TAHLIL**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Jabborov Ikromjon Jumaniyazovich

Shayx Najmiddin Kubro ta’limotida inson tushunchasi:

qiyosiy-falsafiy tahlil.....5

Джаббаров Икромджон Джуманиязович

Концепция человека в учении Шейха Наджмиддина Кубро:

сравнительно-философский анализ.....23

Jabbarov Ikromdzhon Dzhumaniyazovich

The concept of man in teaching of Sheikh Nadzhmiddin Kubro:

comparative philosophical analysis.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of works published50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

JABBOROV IKROMJON JUMANIYAZOVICH

**SHAYX NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA INSON TUSHUNCHASI:
QIYOSIY-FALSAFIY TAHLIL**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1114 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Navro‘zova Gulchehra Negmatovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muzaffarov Feruz Davronovich
falsafa fanlari doktori, professor

Raxmonov Sunnatillo Mavlonovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “27” sentyabr soat 10⁰⁰” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (494 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “13” sentyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil “13” sentyabr” dagi 13 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot texnologiyalari xuruji kuchaygan hozirgi inson qalbi va ongi uchun kurash kuchayib ketayotgan, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, din mohiyatini buzishga va yoshlarni haqiqiy yo'ldan adashtirishga urinayotgan bir paytda buyuk mutafakkirlarning asarlarini aholi, ayniqsa yoshlar orasida keng o'rganish va targ'ib qilish zarurati tobora oshib bormoqda. Islomning asl mohiyati, insonparvar g'oyalari, umuminsoniy g'oyalar orqali yetib kelgan qadriyatlar jamlanmasi madaniy yuksalish jarayonini meyorlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish hamda yoshlarni barkamol va komil insonlar qilib tarbiyalashda gumanistik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Shayx Najmiddin Kubroning tasavvufiy-irfoniy hamda diniy-ma'rifiy g'oya va qarashlarning asl mohiyatini aks ettiruvchi "Ofoq va anfus", "Latoif" nazariyalarining o'ziga xususiyatlarini, uning axloqiy va ma'naviy yuksalish hamda komillik mezonlarini ishlab chiqishdagi ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida Sharq diniy-falsafiy ta'limotlari, ayniqsa Markaziy Osiyo tasavvufiy tariqatlarining jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatiga oid fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Umuminsoniy madaniyatlar kontekstida ilmiy-ma'naviy merosda ilgari surilgan qarashlar insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillarini jamiyat hayotiga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan tariqat asoschisi Shayx Najmiddin Kubroning ilmiy-ma'naviy merosi umuminsoniy qadriyatlar negizida taraqqiy topgan inson mohiyatining zamonaviy falsafiy jihatini o'rganishda, kubroviya tariqatining antropologik, aksiologik hamda gnoseologik xususiyatlarini ochib berishda, irfoniy-falsafiy g'oyalarni yoshlar ongiga singirishda metodologik asos bo'lib, uni yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda tarixiy-madaniy merosni qayta tiklash va yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, bebaho ilmiy-ma'naviy meros asosida yangi jamiyat qurish hamda jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. "Xorazmning buyuk tog'lari bor – bu Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Feruzlardir"... Bugun biz cheksiz g'urur va iftixor bilan bu ro'yxatga Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Hofiz Xorazmiy, Sulaymon Boqirg'oniy singari ulug' ajdodlarimizning qutlug' nomlarini ham qo'shib aytishga to'la haqlimiz. ...Ming afsuski, biz mana shunday ulug' ajdodimiz haqidagi tarixiy haqiqatni yoshlarimizga to'la yetkazayapmiz, deb ayta olmaymiz"¹. Shuning uchun Shayx Najmiddin Kubro asarlaridagi "komil inson" tushunchasini, ilmni egallash va unga amal qilish, kasb-hunar egallash, inson komilligi mezonlarining tasavvufiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. 14.10.2017. // <https://president.uz/uz/lists/view/1147>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Shayx Najmiddin Kubro ma’naviy merosi G‘arb va Sharq mamlakatlarida muayyan darajada o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarni shartli ravishda besh guruhga ajratish mumkin:

1. *Najmiddin Kubro faoliyati bilan bog‘liq holda Xorazm tarixi haqidagi asarlar.* Jumladan, Ibn al Asirning “Al-komil fit-tarix”, Juvayniyning “Tarixi jahongushoy”, Rashididdin Fazlullohning “Jome’ at-tavorix”, Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Hamdulloh Qazviniyning “Tarixi guzida”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Abulg‘oziyning “Shajarayi turk” va boshqa mashhur tarixiy kitob va tazkiralarni kiritish mumkin²;

2. *Najmiddin Kubroning hayoti va ijodi, ilmiy merosi haqidagi tasavvufiy adabiyotlar.* Bu guruhga Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoim ul-muhabbat”, Ali

² Ибн ал–Асир. Ал–комил фит–тарих. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№824, 1-6 жилдлар; №825, 7-12 жилдлар; Жувайний. Тарихи жаҳонгушой. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№12148, №610, №4597; Фазиллоҳ Р. Жомеъ ат–таворих. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№25; Рашид–ад–Дин. Сборник летописей. Т.1. кн.1-2, перевод с персидского А.А.Хетагурова, –М.-Л., 1952; Улуғбек М. Тўрт улус тарихи. / Форс тилидан Б.Ахмедов, Н.Норкулов, М.Хасановлар тарж. –Т.: Фан, 1994. –198 б.; Ҳамидулло М. Тарихи гузида. Абдулхусайни Навоий, Техрон, 1362 х.ш. - С.669; Мирхонд. Равзат ус-сафо. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№ 1813; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№ Баходирхон Абулғозий. Шажарайи турк.//Масъул муҳаррир ва сўз боши муаллифи: Б.А.Аҳмедов. – Т.:Чўлпон, 1990. – 192 б.

Safiyning “Rashohotu aynil-hayot”, Boxarziyning “Avrod ul-ahbob va fusus ul-odob”, Ibn al-Karbaloyining “Ravzat ul-jinon”, Ali Akbar Dehxudoning “Lug‘atnoma” kabi asarlarini kiritish maqsadga muvofiq³;

3. *Najmiddin Kubroning xalq og‘zaki ijodidagi obrazi haqidagi qissalar va manoqiblar.* Bu guruhga “Shayx Najmiddin Kubro qissasi”, “Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro”, “Ibn Xojib qissasi” kabi asarlarni kiritish mumkin⁴;

4. *Najmiddin Kubro tasavvuf ta’limotining xorijda hamda mintaqa darajasida o‘rganilishi.* Bunga M.Bursaviy, Dj.Trimingem, Devin De-Uiz, Usmon Turar, Asad Jo‘shon, Moxir Izz, Yu.Zaydon, K.Makrey, F.Mayer, Ye.Bertels, M.Qora, S.Go‘kbulut va boshqalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin; MDH mamlakatlarida I.P.Petrushevskiy, S.N.Grigoryan, P.S.Taranov, A.I.Narinbaev kabi faylasuflar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Shayx Najmiddin Kubro ilmiy-ma’naviy merosining tasavvuf ta’limoti taraqqiyotida tutgan o‘rnini belgilab berishda katta ahamiyat kasb etadi⁵.

5. *Mustaqillik davri mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlari:* N.Komilov, A.Juzjoniy, I.Haqqul, H.Aliqulov, R.Nosirov, M.Qodirov, O.Safarboev, Z.Is‘hoqova, U.Ametova, G.Navro‘zova, E.Zoyirov, O.Sharipova, N.Safarova, B.Namozov, Yunusova G., F.Muzaffarov, S.Raxmonov, A.Boltaev, X.Raxmatova tadqiqotlarini ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir⁶.

³ Агтор Ф. Тазкират-ул авлиё (Авлиёлар китоби). / Мирзо Кенжабек тарж. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. -175 б.; Жомий, А. Нафохотул-унс-мин-хазаратул-қудс. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№ 4409; Навоий, А. Насоим ул-муҳаббат мин шамоимул футувват. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№ 5420/III.-290 б.; Али Сафий. Рашоҳату айнил-хаёт. Обихаёт томчилари. / нашрга тайёрловчилар: М.Хасаний, Б.Умрзоқ.-Т.: Абу Али ибн Сино, 2004.- 536 б.; Бохарзий, Абул-Мафохир Яхё. Аврод ул-аҳбоб ва фусус ул-одоб. / Нашрга тайёрловчи: Ираж Афшор.-Техрон, 1345 х.ш.-153 б.; Ибн ал-Карбалойи. Равзат ул-жинон ва жаннат ул-жинон. ж.2. / Нашрга тайёрловчи: Жаъфар Султон ал-Қаррорий. - Техрон, 1349 х.ш.; Али Акбар Деҳхудо. Луғатнома. 104-жилд. - Техрон университети., 1965.-365 б.

⁴ Шайх Нажмиддин Кубро қиссаси. / ЎзРФА Шарқшунослик институтининг Санкт-Петербургдаги нусхаси, инв. 217 (А 708), 1890., 116 в.; Бизнинг қўлимизда сақланаётган қўлёзма (Урганч) нусхаси.-х.1305/м.1886.,86 в.; Маноқиб Шайх Нажмиддин Кубро. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№7615/І.; Таърифи Хоразм ва ҳикояти салотин. / ЎзР ФА ШИ қўлёзмалари: инв.№ 6895/ІХ; Хоразм тарихига оид рисола. / ЎзР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди қўлёзмалари: инв.№ 6119. 63 в.; Таърифи вилояти Хоразм. / ЎзР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди қўлёзмалари: инв.№ 5207VI.; Хоразмшоҳлар тарихи. / ЎзР ФА Қорақалпоғистон бўлими фонди. Инв. И-90. 1950.

⁵ Бурсавий Х. Шарҳи усули ашара.- Бурса: Ломей Мухаммадий масжиди, 1137х./1724 м.й. / Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи: Мустафо Қора; Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе.// под ред. и с предисл. О.Ф.Акимущкина. -Москва: “София”, ИД “Гемос”, 2002.-С.480.; Devin De Weese. Sayyid ‘Ali Namadani and Kubrawi Hagio-graphical Traditions.//The legacy of mediaeval Persian Sufism. -London-Newyork., 1992.- S.121-155; Усмон, Турар. Тасаввуф тарихи.-Т.: Маънавият, 1999.-180 б.; Жўшон, М.А. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. / Таржимон: С.Сайфуллоҳ.- Т.: Истиклол, 1999.-238 б.; Mahir Iz. Tasavvuf. -Istambul, 1969; Макрей К. Нематуллоҳия тариқати. //Шайх Нажмиддин Кубро. Мақолалар.-Т.: Ёзувчи, 1995.- Б.60-63; Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования).//Сб.ст. памяти Ф.Майера (1912-1998). Состав. и ответ. ред. А.А.Хисматулин.-СПб.: СПб. ГУ, 2001.-С.394; Бертельс, Е.Э. Суфизм и суфийская литература. - М.,1965.- С.365. С. Григорян Среднев. филос. народов Ближ. и Сред. Востока. – М.: Наука, 1966. – 352 с.

⁶ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб.-Т.: Ёзувчи, 1996.-246 б.; Жузжоний А.Ш. Тасаввуф ва инсон. -Т.: Адолат, 2001.-113 б.; Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият.-Т.: АСН, 1991; Алиқулов Х. Нақшбандия қадириятлари. - Т.,1994; Носиров Р. Тасаввуф таълимоти, унинг моҳияти ва аҳамияти. -Т., 1996; Қодиров М. Нажмиддин Кубро ва унинг “Одоб уз-зокирин” рисоласи.//Шайх Нажмиддин Кубро. Кутби даҳр.-Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 1998.-127-158 бб; Сафарбоев О. Нажмиддин Кубро жасорати. – Урганч: УрДУ нашри, 2010. 56 б.; Исҳоқова З. Шайх Нажмиддин Кубро. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2019. – 212 б.; Аметова У. Ўзбек мумтоз адабиётида кубровийлик аънавалари. Филол.ф.н. дисс.автореферати. – Тошкент, 2021. ва бошқ. Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. –Т.: “Фан”, 2021. 240 б. Zoyirov E.

Umuman olganda, Najmiddin Kubro va kubroviylikni tadqiq etish ishlari O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach faollashgan bo‘lsa-da, inson va uning mohiyatini ochib beruvchi monografik tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda turli jabhalar nuqtai nazaridan o‘rganish ishlari olib borilsa-da, lekin, Shayx Najmiddin Kubro inson to‘g‘risidagi qarashlarining falsafiy-konseptual jihatlari yetarlicha o‘rganilmaganligi namoyon bo‘lmoqda. Shu bois ushbu tadqiqot ishida yuqoridagi tadqiqot ishlaridan farqli ravishda Shayx Najmiddin Kubro va kubroviya ta‘limotida inson to‘g‘risidagi qarashlarning boshqa tasavvufiy tariqatlar qiyosiy tahliliga alohida e‘tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IV band “O‘zbekiston tarixini o‘rganishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy muammolari: yechim, qiyosiy tahlil” (2020-2025 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Shayx Najmiddin Kubro tasavvufiy-falsafiy merosidagi inson to‘g‘risidagi qarashlarning antropologik ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XII-XIII asrlarda Xorazmda tasavvufning vujudga kelish sabablarini va davr ijtimoiy-ma‘naviy muhitini tadqiq etish;

Shayx Najmiddin Kubro hayoti, ilmiy ijodi va “kubroviya” ta‘limotining shakllanish xususiyatlarini ochib berish;

mutasavvif dunyoqarashida aks etgan “Ofoq va anfus” – olam haqidagi ontologik nazariyasini falsafiy-konseptual tahlil etish;

mutafakkirning inson ruhiyatiga oid “Latoif” nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

Shayx Najmiddin Kubro ta‘limotidagi ilm va amal masalalari, komillik mezonlarining ishlab chiqilishini tadqiq etish;

Najmiddin Kubro qarashlaridagi “Komil inson” shaxsini tarbiyalashga doir goyalarni aniqlashtirish;

Kubro ta‘limotidagi axloqiy va ma‘naviy yuksalishga oid g‘oyalarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berish va ta‘lim-tarbiya sohasini takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ya‘qub Charxiyning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari. –B.: 2023. 240., Sharipova O. Abdulxoliq G‘ijduvoniya ma‘naviy merosining falsafiy tahlili. fal. fan. doktori (DSc) ilm. daraj. olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Buxoro, 2022. -B.249.; Сафарова Н. Хожакон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи. ал.фан.ном.Дисс...Тошкент, 2002. -152 б. Намозов Б. Муҳаммад Порсонинг фалсафий таълимоти. Монография. -Тошкент, “Мумтоз”, 2015. –Б. 176., Юнусова Г. “Наводир ул вақоъе”да таваккул назарияси талқини” // Қомусий мутафаккир. Аҳмад Донишнинг “Наводир-ул-вақоъе” асари – адабий, фалсафий, ахлоқий, маънавий манба ва унинг замонавий моҳияти” мавзuidaги Республика анжумани материаллари. Бухоро, 2017. 101-б., Muzaffarov F. Imom G‘azzoliyning falsafiy fanlar taraqqiyotidagi o‘rni va roli. Diss...Buxoro, 2022. –Б. 242., Рахмонов S. Jaloliddin Rumi va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarining qiyosiy-falsafiy tahlili. Diss...Samarqand, 2023. –B.240., Болтаев А. Мавлоно Яъқуби Чархий ўз устози Баҳоуддин Нақшбанд. Ислом тафаккури. Илмий-маърифий, диний-маданий, ахборот нашри. Тошкент, 2020. –Б. 31-37., Рахматова X. Хожа Ахрори Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Т.: “ADIB”, 2014. 128 Б.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Shayx Najmiddin Kubro ma’naviy merosi va tasavvufiy-falsafiy qarashlari ochib berilgan asarlar, shuningdek kubroviya ta’limotiga oid ilmiy manbalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Shayx Najmiddin Kubroning “Usuli ashara”, “Risola ilal hoim”, “Favoyih-ul jamol”, “Ko’ngil ko’zi bilan ko’rganlarim” asarlaridagi inson mohiyatiga oid qarashlarining tasavvufiy-falsafiy xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shayx Najmiddin Kubroning “Latoif” nazariyasida (ong bilan his-tuyg‘u, ruh bilan vujud o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik) insonni ilohiy xislatlari “nuqta” (vahdat-birlik, yagonalik), “dog‘” (dunyo timsoli) va “doira” (falakning aylanishi) sistemasi ruh, hol, maqom, vaqt, mushohada va zavq kabi tasavvufiy atributlar asosida ochib berilgan;

mutasavvifning “Fi odobus-solikin” asaridagi “foydali odam”, “foydasiz odam”, “haqiqiy inson” (ruh va vujud uyg‘unligi) qalban pok, ruhiy quvvati buyuk, ilohiy-laduniy ilm egasini tarbiyalashda nafs tarbiyasi (jaholat, ilmsizlik, poraxo‘rlik, hasad, shahvat, g‘azab) hamda aqliy tarbiya (narsa-hodisalar va borliqning haqiqiy manzarasini idrok etishga asoslangan bilimlar, voqelikni idrok etish imkoniyati) zarurati “komil inson” konsepsiyasining ilmiy loyihaviy asosi ekanligi mantiqiy dalillangan;

Shayx Najmiddin Kubroning “Usuli ashara” asarida ilgari surilgan “farosat ilmi” (aqliy, hissiy, intuitiv bilish) konsepsiyasida “qalb, botin ko’zi” hamda Bahouddin Naqshband ta’limotida “vuqufi qalbiy” tamoyili botiniy va zohiriy ilm uyg‘unligini ta’minlashda tavba, zuhd, uzlat, tavakkul, tavajjuh, zikr, qanoat, muroqaba, sabr hamda rizo usullari muhim asos ekanligi falsafiy komparativistik asoslab berilgan;

kubroviya tariqatidagi komil insonni tarbiyalashda sadoqat, talab, ishq, muhabbat, oshiqlik maqomi tamoyillari Shayx Najmiddin Kubroning “Sharxus-sunnati val-masolih” va “Risolat ut-turuq”, “Odob ul-muridin” asarlarida ilgari surilgan inson komilligi mezonlari (nafs tarbiyasi, axloqiy poklik va ilohiy ishq) asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Shayx Kubroning kosmologik qarashlarini ifoda etgan “Ofoq va anfus” nazariyasi (olami sag‘ir-kichik olam va olami kabir-katta olam orasidagi munosabatlar) inson ruhi va tafakkurini yuksaltirishda, o‘zligini anglashda, insonni ulug‘lash va qalbni kashf etish, qalbga yo‘l topish, qalbni iymon nuri bilan bezatish orqali valiylik darajasiga ko‘tarilish omili isbotlab berilgan;

tavba – Haq Taolaga yuzlanishi, o‘z “men”idan voz kechishi; zuhd – haromdan tiyilmoq, nafsni taftish qilmoq; tavakkul – shukr qilish, iymon keltirish; qanoat – isrof qilmaslik, iste’molparast bo‘lmaslik; uzlat – xilvatga chekinish, his-tuyg‘uni jilovlash; tavajjuh – Alloh tomonga yo‘nalish (tavajjuhi tom); sabr –nafs qutqusidan riyozat chekib qochish, poklanish; muroqaba – kuzatish, tafakkurga

berilish; zikr – Alloh ismlarini takrorlab turish, gina, kudurat, adovat, g‘aflat va jaholat kabi illatlardan xoli bo‘lish; rizo – Alloh qudratini his qilish kabi kubroviyaning o‘nta usuli naqshbandiya tariqati bilan adekvat ekanligi asoslab berilgan;

Shayx Najmiddin Kubro ta‘limotida otashin ishq va muhabbat; xilvatnishinlik, riyozat va zikr; islom shariati ahkomlariga qat‘iy rioya qilish; Alloh yaratgan xalqqa e‘tibor qaratish va unga xizmat qilish kubroviya tariqatining poydevorini tashkil qiluvchi ruknlar ekanligi aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlar, sotsiologik so‘rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va falsafiy tafakkur rivoji, kubroviya ta‘limotini, uning o‘ziga xos jihatlari, evolyusiyasi, tarixiy-falsafiy negizlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, jumladan Shayx Najmiddin Kubroning tasavvufiy-ma‘naviy merosini falsafiy tahlil etishda nazariy-metodologik asos sifatida, milliy-ma‘naviy qadriyatlarni tiklash, tasavvufning murosa, bag‘rikenglik, sabrlik, shukronalik fazilatlarining komil inson tarbiyasidagi nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda, falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Shayx Najmiddin Kubro ma‘naviy merosida inson mohiyatining falsafiy tahliliga oid qarashlaridan ma‘naviyat va ma‘rifat markazlari amaliy faoliyatida, aholi o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etishda, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi institutlarning faoliyatlarida, shuningdek, falsafa, etika-estetika, madaniyatshunoslik kabi fanlarni o‘qitishda mutafakkirning falsafiy qarashlariga oid g‘oyalarini o‘rganish va ta‘lim muassasalari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tayyorlashda, tasavvuf va falsafa lug‘atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shayx Najmiddin Kubro ma‘naviy merosida inson tushunchasining falsafiy tahlilini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Shayx Najmiddin Kubroning “Latoif” nazariyasida (ong bilan his-tuyg‘u, ruh bilan vujud o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik) insonni ilohiy xislatlari “nuqta” (vahdat-birlik, yagonalik), “dog” (dunyo timsoli) va “doira” (falakning aylanishi) sistemasi ruh, hol, maqom, vaqt, mushohada va zavq kabi tasavvufiy atributlar asosida ochib berilganligiga doir xulosalaridan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-2023 yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida, jumladan, 2023-

yil uchun chora-tadbirlar dasturining IV yo‘nalishida belgilangan “Vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari” 18-bandi “Yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg‘otish, Vatanni himoya qilishni eng sharaflı burch ekanligini keng targ‘ib qilish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-manaviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 27-maydagi 229-son ma‘lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Shayx Najmiddin Kubro ma‘naviy merosida inson mohiyatini falsafiy tahlil qilishga xizmat qilgan;

mutasavvifning “Fi odobus-solikin” asaridagi “foydali odam”, “foydasiz odam”, “haqiqiy inson” (ruh va vujud uyg‘unligi) qalban pok, ruhiy quvvati buyuk, ilohiy-laduniy ilm egasini tarbiyalashda nafs tarbiyasi (jaholat, ilmsizlik, poraxo‘rlik, hasad, shahvat, g‘azab) hamda aqliy tarbiya (narsa-hodisalar va borliqning haqiqiy manzarasini idrok etishga asoslangan bilimlar, voqelikni idrok etish imkoniyati) zarurati “komil inson” konsepsiyasining ilmiy loyihaviy asosi ekanligiga oid xulosalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga saylovoldi dasturidagi VI. “Ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi ustuvor yo‘nalishlar”da keltirilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashda, jumladan partiya tizimidagi xodimlarning ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv-tarbiyaviy faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024 yil 19-iyundagi 02/02-39-son ma‘lumotnomasi). Natijada, partiya yo‘l xaritasida belgilangan dasturlarini amalga oshirishga, mutasavvuf asarlarida keltirilgan inson borlig‘i masalasi, komil inson haqidagi fikrlari yoshlarni yuksak ma‘naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalashda, adolat muammolarini xolisona yoritishda ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan;

Shayx Najmiddin Kubroning “Usuli ashara” asarida ilgari surilgan “farosat ilmi” (aqliy, hissiy, intuitiv bilish) konsepsiyasida “qalb, botin ko‘zi” hamda Bahouddin Naqshband ta‘limotida “vuqufi qalbiy” tamoyili botiniy va zoxiriy ilm uyg‘unligini ta‘minlashda tavba, zuhd, uzlat, tavakkul, tavajjuh, zikr, qanoat, muroqaba, sabr hamda rizo usullari muhim asos ekanligiga doir nazariy umumlashmalar va ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106-son “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G‘arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi” (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 7-iyundagi 04/11-4927-son ma‘lumotnomasi). Natijada, jamiyat ijtimoiy hayotida Shayx Najmiddin Kubro ma‘naviy merosi tahlili asosida ogohlik maqomini insonparvarlik mezonlari va prinsiplari asosida amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga hamda loyiha doirasida nashr etilgan ishlarning mazmunan boyishiga xizmat qilgan;

Kubroviya tariqatidagi komil insonni tarbiyalashda sadoqat, talab, ishq, muhabbat, oshiqlik maqomi tamoyillari Shayx Najmiddin Kubroning “Sharhus-sunnati val-masolih” va “Risalat ut-turuq”, “Odob ul-muridin” asarlarida ilgari surilgan inson komilligi mezonlari (nafs tarbiyasi, axloqiy poklik va ilohiy ishq) asosida ochib berilganligiga doir ilmiy asoslangan taklif, tavsiyalaridan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi “Xorazm” telekanali dasturlarini, 2024-yil mart-aprel oylarida efirga uzatilgan “Assalom Xorazm” nomli maxsus teleko‘rsatuvlarining dastur ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-avgustdagi 816-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz yoshlariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida buyuk islom mutafakkirlarining hayot yo‘li, ilmiy merosi, shuningdek, islom ilohiyotshunosligining ijtimoiy ahamiyatiga doir ko‘rsatuvlarning mazmunan boyishiga, teletomoshabinlarning bu boradagi bilim va dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Najmiddin Kubro – kubroviya ta’limotining asoschisi**” deb nomlanib, ushbu bobda XII-XIII asr Markaziy Osiyo va Xuroson jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, Najmiddin Kubroning hayot yo‘li, tasavvuf ilmi bilan shug‘ullanishi va shu asosda dunyoqarashining shakllanishi, uning qarashlariga ta’sir etgan omillar, mashhur Sharq mutasavviflari Shayx Ro‘zbehon Misriy, Shayx Ammor Yosir, Shayx Ismoil Qasriy va Bobo Faraj kabi islom tasavvufining yirik vakillari falsafiy qarashlarining alloma dunyoqarashiga ta’siri, mutafakkirning falsafiy qarashlari tadqiqi uchun metodologik asos bo‘luvchi asarlari uslubiy jihatdan tahlil qilingan.

Allomaning asli ismi Axmad ibn Umar al-Xeva'iy bo'lib, Xorazmda tug'ilib o'sib, keyin Eronzamin va Arab mamlakatlariga sayohat qilgan. Uzoq vaqt mobaynida yirik tasavvuf mashoyixlaridan ta'lim olib, o'zi ham yetuk tasavvuf ta'limotchisi darajasiga yetgan va Najmiddin Kubro laqabi bilan shuhrat qozongan⁷. So'ngra u vataniga qaytib, Muhammad Xorazmshoh davrida Gurganjda yashab, tasavvuf ta'limotini rivojlantirgan, ko'plab shogirdlar yetishtirgan.

Dissertant Najmiddin Kubro hayotini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib tadqiq etgan. *Birinchi bosqich* – bolalik va o'smirlilik yillari (1145-1170 yy), Xorazmda yashagan. *Ikkinchi bosqich* – Najmiddin Kubro ilm talabida safar qilib, 35-40 yil (taxminan 1170-1200 yy) davomida Eron, Arabiston va Misrda yashagan. *Uchinchi bosqich* hayotining oxirgi yillari (asosan 1200 yildan keyin) vatani Xorazmda kechgan. Shuningdek, tadqiqotchi Najmiddin Kubroning ilm izlash jarayonlari, ustozlardan saboq olishlari, ilmini kamolga yetkazib, Vataniga qaytishi va xonaqoh tashkil qilib muridlar tarbiyalashi, mo'g'ul qo'shinlariga qarshi kurashib shahid bo'lishini ta'kidlagan.

Shayxi valitarosh ma'naviy merosi jamiyat hayoti, din va falsafa bilan chambarchas bog'liq. U falsafiy asarlarida borliq, jamiyat va bilish muammolarini ko'tarib chiqadi va ularga nisbatan o'z qarashlarini ilgari suradi. Shuningdek, allomaning ilmiy merosi ma'lum bo'lishicha: 21 ta asar⁸, 40 ta ruboiy hamda 3 ta g'azaldan iborat bo'lib, dissertatsiya ishida bularga qisqacha ta'rif, tavsif berilgan.

Tadqiqotchi ta'kidlashicha, “Eng porloq sulola”⁹ deb ta'rif berilgan Xorazmshoh Anushtaginlar davlati ijtimoiy madaniy hayotida islom dini aqidalariga e'tibor kuchaygan. Islom peshvolari – sayyidlar, mashoyixlar, ulamolarga xorazmshohlar juda katta izzat-ikrom, iltifot ko'rsatganlar, boshqa mamlakatlar bilan elchilik munosabatlarida va turli nizolarni murosa bilan hal qilishda ular bilan maslahatlashgan holda ish tutganlar. Markazlashgan yirik siyosiy birlikning shakllanishi, fan va madaniyat, iqtisodiy yo'nalishlardagi umumiy o'sish o'z navbatida, ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Xususan, bu davrda tasavvuf ta'limoti keng tarqaldi va rivojlandi. Mamlakatda Xuroson tasavvuf maktabining ta'siri kuchaygan. Abdulla Ansoriy (1006-1089 yy), Yusuf Hamadoniy (1049-1140 yy), Ahmad Jom (1049-1142 yy) ushbu ta'limotning yirik namoyondalari bo'lishgan. Tasavvufning bir qator kichik tariqatlari: qassoriya, muhosibiya, junaydiya, tayfuriya, nuriya, sahliya, hakimiya, xafifiya, harroziya, sayyoriya va boshqalar vujudga kelgan. Yagona ijtimoiy-siyosiy birdamlik zaminida Xuroson tasavvuf maktabi Movarounnahrda tasavvuf rivojiga turtki bo'ldi. Ayniqsa, XIII asrda tasavvuf xurofiy (dinga zid) bo'lgan ta'limot emas, u dunyoviylik bilan diniylikni bog'lab, inson muammolarini hal etishga qaratilgan, umuman olganda insonni ma'naviy jihatdan kamolga yetkazish

⁷ Шайх Нажмиддин Кубро киссаси ёхуд кирк ривоят / Масъул муҳарр.: М.Сафарбоев. – Урганч: “Хоразм” нашр., 2006. – Б. 29.

⁸ Kubroshunos olim O.Safarboyev 21 ta asarning nomini keltiradi.// Qarang: Сафарбоев О. Шайхлар ва шаҳидлар куброси./Маъсул муҳаррир: Г.Наврӯзова. – Тошкент: “JAVOHIR-ILM-NASHR”, 2024. – Б. 48-49.

⁹ Шайх Нажмиддин Кубро киссаси ёхуд кирк ривоят. – Урганч: “Хоразм”, 2006. – Б. 32.

– komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish to‘g‘risidagi axloqiy-falsafiy ta‘limotga aylandi. Mana shu davrdan boshlab Najmiddin Kubro hazratlari tasavvuf tarixida tub burilish yasadi. “Al-usul al-ashara”, “Favoyihul-jamol”, “Risolatut-turuq”, “Fi odobus-solikin” kabi asarlari tufayli tasavvuf amaliy axloq normalaridan o‘tib, ilmu-hikmat, ya‘ni falsafiy nazariyaga aylandi¹⁰. Najmiddin Kubroning tasavvuf ta‘limotida inson va uning moddiy, ruhiy olami, inson ma‘naviy kamoloti, ishq va oshiqlik masalalari o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqotda Shayx Najmiddin Kubro ma‘naviy merosida inson mohiyati va uning falsafiy tahlili va tasavvuf ta‘limotining ijtimoiy-falsafiy masalalari bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishilganligi haqida ma‘lumot berilgan:

- tasavvuf tarixida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma‘naviy merosi, xususan, Shayx Najmiddin Kubro asoslagan (XII asr) kubroviya tasavvufiy ta‘limotining undan keyin shakllangan naqshbandiya (XIV asr) ta‘limotidagi komil inson g‘oyalariga vorisiy ta‘siri ilmiy-nazariy asoslangan (School of Culture, religions and polity in Asia, Buyuk Britaniya);

- Shayx Najmiddin Kubro ijodida komillik mezonlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni ilmiy asoslangan (Hofstra university, Nyu York);

- turkiyazon xalqlarida Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xususan naqshbandiya ta‘limoti namoyondalarining ijtimoiy-axloqiy qarashlari va kubroviya ta‘limoti g‘oyalarining inson kamolotiga ma‘naviy-ruhiy sog‘lomlashtiruvchi ta‘siri asoslangan (Sank-Peterburg universiteti, Rossiya);

- Shayx Najmiddin Kubro merosida tasavvufiy ta‘limotlar tarixi va qiyosiy-tipologik farqlanishi isbotlangan va teologik mohiyati ochib berilgan (Al-Asqar university, Qohira);

- Shayx Najmiddin Kubroning ilmiy-ma‘naviy merosi manbalarining tasnifi ishlab chiqilgan (Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari instituti, Rossiya; Istanbul ilohiyot universiteti, Turkiya).

Najmiddin Kubroning ilmiy-ma‘naviy merosi inson ma‘naviy-axloqiy inqirozining oldini olishga; milliy-ma‘naviy meros zahiralari boyitish; insonlar orasida mehr-oqibat, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga oid ilmiy konsepsiyalar yaratishda; egotsentrizmning potensial sabablarini bartaraf etishda; tasavvuf ta‘limoti tarixini yanada boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z davrida hech qaysi ulamo ilmiy munozaralarda Najmiddinga bas kela olgan emas. Shuning uchun ham Kubro laqabini oladi. Shayxning hayot yo‘li mo‘g‘ullarning Xorazmni istilo qilishi bilan yakunlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Najmiddin Kubroning inson borlig‘iga oid qarashlari**” deb nomlanadi. Ushbu bobda buyuk mutasavvif, alloma Shayx Najmiddin Kubro dunyoqarashida aks etgan ontologik, gnoseologik, teologik, metodologik hamda aksiologik qarashlarning shakllanishi hamda mutafakkir qarashlarida namoyon bo‘lishi falsafiy-konseptual jihatdan tahlil etilgan.

¹⁰ Кубровия таълимоти ва шахсининг маънавий камолоти масалалари (мақолалар тўпи). – Урганч, 2003. – Б. 61.

Najmiddin Kubro tasavvufga “Ofoq va anfus”¹¹ nazariyasini kiritgan bo‘lib, unga ko‘ra “Ofoq va anfus” – Olami sag‘ir (kichik olam) va Olami kabir (katta olam) orasidagi munosabatlardir. Ilohiyot olami – kayhon Olami kabir, ulug‘ Olam bo‘lsa, inson – Olami sag‘irdir. Olami sag‘ir (inson) ilohiyot olamining va moddiy olamning, ya‘ni Olam chorgohlarining butun xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun insondagi – taraqqiyot - Olami kabir, ya‘ni Ulug‘ Olam bilan bog‘liq. Ulug‘ Olamning o‘zidagi o‘zgarishlar ham insonning hayoti, tafakkuri, ruhining taraqqiyoti bilan bog‘liq. Mana shunday qarashlarning vujudga kelishida Najmiddin Kubroning xizmatlari kattadir. Demak, inson borliq, moddiy olamning mohiyatini hamda uning qanday vujudga kelishi yoki qonuniyatlarini anglab yetishi uchun dastavval o‘zini, o‘z borlig‘ini tadqiq etishi lozim.

Dissertant ta‘kidicha, tasavvuf ta‘limoti mazmun-mohiyati bilan insonshunoslikdir. Ya‘ni, insonni har jihatdan kashf qilish, uni ma‘nan yuksaltirish, ruhiy kamolotga erishtirish, Haqqa vosil bo‘lishidagi vositadir. Najmiddin Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida, o‘z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasi ko‘ra, inson o‘z mohiyati e‘tibori bilan mikrokosm, ya‘ni kichik Olamni tashkil qiladiki, u makrokosm, ya‘ni katta Olam, koinotda mavjud bo‘lgan barcha borliqlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Biroq, yuqori samoviy doiralarda ilohiy sifatlar tartib bilan o‘ziga hos maqomlarni egallaganligi bilan, haqiqat toliblari bunday yuksakliklarga ko‘tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo‘lishi uchun, ya‘ni kamolotlarga erishishi uchun, ma‘lum riyozatli yo‘llarni bosib o‘tishlari zarur¹². Albatta, inson tasavvufdagi ruhiy-ma‘naviy bosqichlarni bosib o‘tmaguncha yuksak ilohiy sifatlar sohibiga aylanmaydi va Haq Taologa yaqinlik hosil qila olmaydi.

Tadqiqotda Najmiddin Kubroning irfoniy ta‘limotida inson omili asosiy o‘rinni egallashi asoslab berilgan. Shayx inson tafakkuriga yuksak baho berib, shunday ta‘rif beradi: “Inson bolasiga valiylik azaldan nasibadir, negaki odamzod Allohning suygan mahluqi, Parvardigor odamzodga ong-aql va botiniy nur bergan hamda uni barcha mavjudotdan afzal qilib yaratgan”¹³. Demak, jumla odamzod boshqa mavjudotlar ichida Yaratganning marhamati bilan yuqoridagi sifatlar bilan sifatlanganligi uchun ham sharaflidir. Quyidagi ruboiyda ruh va uning mohiyati, borliq va yo‘qlik tushunchalari falsafiy talqin qilinadi:

Har narsaki, yo‘qmi - yo‘q o‘shal misli shamol,
Har narsaki, bormi - oqibat topdi zavol.
Bor narsani olamda gumon et yo‘q deb,
Yo‘q narsani bor debon biroq ayla xayol¹⁴.

Bundan har qanday yo‘q narsadan huddi shamol singari hech narsa qo‘lda qolmas ekan, har qanday bor narsaga kamchilik, nuqson hamda yemirilish xos ekan, demak sen olamda yo‘q narsalarni bor deb, bor narsalarni yo‘q deb hisobla,

¹¹ Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. /“Фавойихул жамол”. – Тошкент: “Мовароуннахр”. 2004. – Б. 202.

¹² Шайх Нажмиддин Кубро. Шайхи рисолае одобул зокирин. / Масъул муҳаррир: М.Сафарбоев. – Урганч: “Хоразм”, 1997. – Б.11.

¹³ Комилов Н. Нажмиддин Кубро (рисола). – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995. – Б.47.

¹⁴ Очилов Э. Муборак сарчашмалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б.9.

degan ma'no kelib chiqadi. Demak, olamda nimaiki "Ofoq va anfus"ga taalluqli ekan unga yemirilish, yo'q bo'lish taqdir etilgan. Aksincha, hali mavjud bo'lmagan, moddiy jihatdan yaratilmagan narsa hodisalar esa bir kun kelib dunyo yuzini ko'rishi, ma'lum muddat mavjud bo'lishi so'ngra yana yo'qlikka aylanishi muqarrardir.

Najmiddin Kubro ishlab chiqqan "Ruhiyat algoritmi" quyidagilardan iborat: "Insonning asl maqsadi - Haqqa yetishmok, Haq va xalq dardi bilan yashamoqdir". Demak, inson hayotining ma'naviy mohiyati ham saodati Haq taologa yetishmoqdir. Biroq bu komillik o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Inson riyozatli yo'lni (o'nta asos asosida) bosib o'tishi orqali valilik darajasiga yetadi¹⁵. Kubroviyadagi ushbu o'nta qoida: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba hamda rizodir.

Tasavvufiy qarashlarga ko'ra insonning asosiy majburiyatlaridan biri qalb tasfiyasi, qalbni poklash, uni dunyo chirkinliklaridan butunlay tozalashdir. Ayrim mutasavviflar fikricha, inson qalbi rahmoniy va shaytoniy aqidalar kurashadigan jangohdir. Bunda har ikki tomon qalbni o'ziga taslim va tobe qilishni istaydi.

Buyuk Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf falsafasiga qo'shgan yana bir yangiligi "Latoif"¹⁶ to'g'risidagi ta'limotdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, insonning ruhiyat olami ko'z ilg'amas latif markazlardan tashkil topgan. Bu ong bilan his-tuyg'u, ruh bilan vujud o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdir. Inson hayoti jarayonida bu "Latif" markazlarning ahamiyati beqiyosdir. Aynan manashu "Latoif" inson zotining Iloh bilan bog'liq hislatlaridandir. Suluk yo'lga kirgan kishi ham jismoniy va ham ruhoni riyozatlar mobaynida bu latoif holatlarining o'zgarishi, ranglar va shakllarning almashinib turishi mahsuli sifatida tasavvur qiladi. Kubroviya tariqatida inson ruhini – ruhi sir, sirrus-sir, xafiy va axfo deb atab, uni "Latoifi sitta" deyishadi¹⁷. Shayx Kubroning fikrlariga qaraganda, bu yo'lga kirgan solik aynan manashu markazlarni yallig'lantirib, sayqallashtirib borishi hamda ularni anglab olishi lozim. So'fiy nafsoniy riyozat, mujohada jarayonida turli ruhiy holatlarni ranglar va shakllarning davomli o'zgarishi tarzida tasavvur etadi. Biroq ilohiy sifatlar buyuk samoviy doiralarda izma-iz o'ziga xos darajalarda joylashganligi sababidan, haq yo'lni tanlaganlar bunday yuksalishga musharraf bo'lishlari uchun ma'lum bir mashaqqatli, havf hatarga to'la bo'lgan yo'lni o'tishlari lozim bo'ladi. Ushbu yo'lda unga Piri komil bo'lgan zot rahnamolik qilishi kerak bo'ladi.

Tadqiqotda Shayx Najmiddin Kubro dunyoviy ilmlar sohibi, donishmand kishi bo'lganligi sababidan dastavval aqliy bilishga urg'u berganligi qayd etiladi. "Vujud, ya'ni inson badani ilk ko'rinishda quyuq qorong'ulikdir. U biroz poklanib, tozalangach, sening nazdingda siyoh bulut holiga kelar. Badan shayton arshiga aylanganda esa qirmizi rangga kiradi. Ancha keyin isloh qilinib, moddiy huzur va lazzatlardan qutulsa, huquqlarni barqarorlashtirsa, u tiniqlashadi, oq tusga kiradi va

¹⁵ Сафарбоев О. Нажмиддин Кубро – Кутби дахр (услубий қўлланма). – Тошкент: "Тошкент ислом университети", 2011. – Б.20.

¹⁶ Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. / "Фавойихул жамол". – Тошкент: "Мовароуннахр". 2004. – Б. 202.

¹⁷ Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. / "Фавойихул жамол". – Тошкент: "Мовароуннахр". 2004. – Б.203.

yomg'ir bulutiga o'xshaydi"¹⁸. Bundan kelib chiqadiki, so'fiyning ruhiy holatlari ranglar bilan bog'liq bo'lib, Yaratgan tomon yuksalishidagi bosqichlarni bildiradi. Turli-tuman va almashib turuvchi ranglar solikning holatini, tafakkuriy-shuuriy kechinmalarining davomiyligini ifodalab, botiniy-tafakkuriy kechinma, o'ylarning turli-tuman, alg'ov-dalg'ovligini anglatadi. Ruhning bir rangdan ikkinchi rangga ko'chishi yuksalishdan dalolat beradi. Bu jarayon nihoyada "talavvun" (rang-baranglikdan) dan xalos bo'lib, olami vahdatga qo'shiladi. Jumladan, zangori rang solikning tariqatga qadam qo'yganida, ya'ni tavba qilganida ko'rinadi, bunday holatda u shariat doirasida bo'lib, mantiqiy-daliliy bilishdan hali hanuz xalos bo'lmagan, hali ham ko'nglida dunyoviy istak, havaslar mayli kuchliligidan dalolatdir. Undan so'ng tariqat bosqichlari boshlanadi, solikning qalbida muhabbat nishonalari qo'zg'ola boshlaydi va u endi Alloh taolo yodi bilan yashaydi. Bu esa sariq rangga muvofiq keladi. Qizil rang solik ruhining vujudan ajralib, ma'rifatga yaqinlashgani hamda ma'naviy mohiyatlar sirini anglay boshlaganida ma'lum bo'ladi. Biroq bunday bosqich hali ham hirs ilgidan halos bo'lmagan bir holatdir. Shundan so'ng oq rang zuhur bo'ladi, bu yurakning poklanishidan nishonadir va Haqiqatni anglash bosqichidir. Olami Haqiqatdan habardor bo'lib, solik tavhid holatini boshdan kechiradi. Bundan keyin esa yashil rang keladi. Ushbu rang valilikdan nishonadir. U sirlar siriga, ya'ni g'ayb olamiga oshnolikni bildiradi hamda solikni haqiqiy mohiyatlarga musharraf bo'layotganini ham anglatishi mumkin, solikni mazkur ranglar Alloh tomon ruhiy safarlarini anglatasa, oltinchisi qora rang bo'lib, Allohdan xalq tomon qaytishni bildiradi. Ushbu rang kanzul asror, ya'ni sirlar xazinasiga sohib bo'lishni va hayrat ichra g'arq bo'lishini ifodalaydi. Hayratda qolgan ruh shariatning asosi – hikmatini qaytadan idrok etib, qorong'i bir dog' rangiga aylanadi. Oxir-oqibat, solikning ruhi yana Alloh qarshisida paydo bo'ladi. U qoralikdan qutulib, rangsizlik holatiga o'tadi. Solik zoti kull darajasini egallab yakranglik, ya'ni bir xil ranglik holatida maqsadiga erishadi¹⁹. Keyinchalik ushbu nazariya XX asr bo'sag'alarida vujudga kelgan parapsixologiya vakillari qarashlarining vujudga kelishiga turtki bo'ldi.

Najmiddin Kubro hazratlari tolibu muridlarni ilm olishga, ma'rifat sohibi bo'lishga da'vat etgan. Allomaning shunday hikmatli so'zlari mashhur: "Ko'rdimki, eng yaxshi do'st ilm ekan"²⁰. Chunki, insonga berilgan barcha moddiy ne'matlar, dunyo matohlari unga faqat bu olamda asqotadi, ilm-ma'rifat esa odamga har ikki olamda hamroh bo'ladi. Shuning uchun muborak Hadisi Shariflarda: "Olimlar payg'ambarlarning vorislaridirlar"²¹, deya ta'kidlanadi.

Dissertant fikrlariga ko'ra, tasavvuf asos e'tibori bilan Qur'oni karim va Hadisi shariflarga asoslangan ilmdir. U nazariy bo'lishi bilan birga, tajribada ko'rinadigan amaliy ilm, unda bilim manbai sifatida sog'lom fikr va aql bilan bir

¹⁸ Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. / "Фавойихул жамол". – Тошкент: "Мовароуннахр". 2004. – Б.110.

¹⁹ Комилов Н. Нажмиддин Кубро (рисола). – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995. – Б.22.

²⁰ Шайх Нажмиддин Кубро қиссаси ёхуд Хоразм тарихи. / Нашрга тайёрловчилар: М.Сафарбоев, С.Раҳимов. – Тошкент: "Истиқлол", 2017. – Б.102.

²¹ Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. / "Фавойих-ул жамол". – Тошкент: "Мовароуннахр". 2004. – Б. 112.

qatorida ilhom, kashf va sezgiga ham o‘rin berilgan. Tasavvuf ilmining eng muhim jihatlaridan biri uning asl, yangi va originalligidir. Darhaqiqat, tasavvuf insoniyatni ilm-ma’rifatga, ezgu, solih amalga chorlaydi.

